



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar- fevral holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **7,5 mingtaga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,1 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **8,1 mingtaga oshgan.**

2018 yilning yanvar-fevral oyida Respublikada 10,8 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 mingtaga ko'pdir.


Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 7,5 mingga (2,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 293,1 mingtani tashkil etgan.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 % ga oshgan hamda ularning soni 2,7 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Toshkent shahrida (21,3 %), Toshkentga oshgan hamda ularning (9,5%), Farg'ona (8,9 %) va Andijon (8,6 %) viloyatlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 mart holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
O'z. Respublikasi	308,4	100,0	293,1	100,0
Q. Respublikasi	14,9	4,8	14,3	4,9
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	26,8	8,7	25,2	8,6
Buxoro	16,9	5,5	16,0	5,5
Jizzax	13,4	4,4	12,8	4,4
Navoiy	19,8	6,4	19,0	6,5
Namangan	10,1	3,3	9,8	3,3
Qashqadaryo	21,1	6,8	20,1	6,9
Samarqand	22,9	7,4	21,6	7,4
Surxondaryo	15,2	4,9	14,4	4,9
Sirdaryo	10,3	3,3	9,6	3,2
Toshkent	31,6	10,3	27,8	9,5
Farg'ona	26,8	8,7	26,3	8,9
Xorazm	14,5	4,7	13,8	4,7
Toshkent sh.	64,1	20,8	62,4	21,3


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,0 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,0 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,1 f.p. kamaygan

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,0 % savdoda, 17,3 % sanoatda, 8,5 % qurilishda, 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,2 % tashish va saqlash, 2,2 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda




2018 yil yanvar-fevral holatiga 10793 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 18,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Toshkent shahrida (2206 ta), Toshkent (973 ta), Farg'ona (904 ta) va Andijon viloyatlarida (871 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (273 ta), Xorazm (329 ta) hamda Navoiy (449 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2117 ta), sanoatda (2072 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (1204 ta) va qurilishda (1168 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (248 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (259 ta) va tashish va saqlashda (384 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-0,9 f.p), savdoda (-0,8 f.p), axborot va aloqada (-0,2 f.p.dan) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+0,7 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,4 f.p.), qurulishda va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,2 f.p.dan), tashish va saqlashda (+0,1 f.p.) hamda boshqa faoliyat turlarida (+0,3 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.03.2018 y.	01.03.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,1	3,0	-0,9
Savdo	22,0	22,8	-0,8
Axborot va aloqa	2,2	2,4	-0,2
Sanoat	17,3	16,6	0,7
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,5	7,1	0,4
Qurilish	8,5	8,3	0,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,0	5,8	0,2
Tashish va saqlash	4,2	4,1	0,1
Boshqa turlari	30,2	29,9	0,3

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 mart holatiga 238,0 mingdan oshiq tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 70,5 mingta, oilaviy korxonalar – 12,4 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 148,1 mingta, aksiyadorlik jamiyatlari – 0,6 mingtani va boshqalar 6,4 mingtani tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 5711 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 659 taga yoki 13,0 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 3186 tasi qo'shma korxonalar, 2525 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Toshkent shahar 3730 ta (65,3 %i), Toshkent viloyati 618 ta (10,8 %) va Samarqand viloyatlari 289 ta (5,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xorazm viloyati 51 ta (0,9 %), Qashqadaryo viloyati 55 ta (1,0 %), Navoiy viloyati 64 ta (1,1 %) va Surxondaryo viloyati 67 ta (1,2 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 mart holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 2507 ta (43,9 %), savdoda 1118 ta (19,6 %), boshqa turlarida esa 1008 ta (17,7 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 77 ta (1,3 %), axborot va aloqada 132 ta (2,3 %), tashish va saqlashda 164 ta (2,9 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 174 ta (3,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 222 ta (3,9 %) va qurilishda 309 ta (5,4 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-fevral oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 237 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 142 taga ko'paygan yoki 2,5 baravarga oshgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 88 ta, savdoda 69 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 18 ta, qurilishda 16 ta va boshqa faoliyat turlarida 46 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 mart holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 235,9 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 mart holatiga qaraganda 8,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 53377 tasi (22,6 %) Toshkent shahriga, 22447 tasi (9,5 %) Toshkent, 20875 tasi (8,9 %) Farg'ona hamda 20677 tasi (8,8 foizi) Andijon viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 235,9 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 63916 tasi (27,1 %) – savdoda, 50014 tasi (21,2 %) - sanoatda, 24841 tasi (10,5 %) - qurilishda, 21505 tasi (9,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 17331 tasi (7,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 12049 tasi (5,1%) - tashish va saqlashda, 6309 tasi (2,7 %) - axborot va aloqa sohasida, 4629 tasi (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 35259 tasi (15,0%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil 1 yanvar-fevral holatiga bilan 9,2 mingga yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,0 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahrida (2082 ta), Toshkent (899 ta), Farg'ona (774 ta) va Surxondaryo viloyatlarida (718 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (249 ta), Xorazm (295 ta) hamda Navoiy (359 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (2068 ta), savdoda (2113 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (1198 ta) va qurilishda (1166 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (248 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (256 ta) hamda tashish va saqlashda (384 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 mart holatiga 12934 tani tashkil etib, ulardan 12378 tasi yoki 95,7 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 32,5 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 38,2 % yoki 4728 tasi sanoat, 20,6 % yoki 2550 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,4 % yoki 1912 tasi savdo, 12,0 % yoki 1481 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,2 % yoki 155 tasi qurilish, 1,2 % yoki 150 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 132 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 111 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,4 % yoki 1159 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Davlat statistika qo'mitasi
Statistik registrlarni yuritish va tizimli
xizmat ko'rsatish boshqarmasi
Nashr uchun mas'ul: **S.Begmatov**
(0371) 230-80-91,90

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan